

"Zakovat" intellektual o'yini

SIZ BOBURDEK SEVING VATANNI

Paxtakor tuman axborot-kutubxona markazida joriy yilning 14-fevral kuni Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligiga bag'ishlab "Boburdek seving Vatanni" nomli "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.



"Kitob bizning do'stimiz" klubi a'zolari ishtirokida bo'lib o'tgan tadbir avvalida axborot-kutubxona mutaxassisi tomonidan bobomiz Bobur Mirzoning hayot va ijod yo'li, to'umining so'ngiga qadar Vatani sog'inchi bilan yashagani to'g'risida ma'lumotlar taqdim etildi. Shundan keyin "Zakovat" intellektual o'yiniga start berildi. O'qituvchi bahs va munozaralarga boy tarzda bo'lib o'tgan bellashuvda "Kitobxonlar" jamoasi 1-o'rinni, "Temuriylar" jamoasi esa 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Tadbirda faol ishtirok etgan va g'alabaga erishgan jamoa a'zolari kutubxona ma'muriyati tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandilar.

Darhaqiqat, Bobur to'um ma'noda yirik shaxs sifatida o'zbek solnomasidan o'rin olgan buyuk siymolardan biridir. Uning tarixchi olim, zukko adib va dilbar shoir sifatida qoldirgan adabiy merosi esa bebahodir. Uning lirikasida, shubhasiz, asosiy mavzu Vatani, uning sog'inchi bo'lgan. Taxt uchun qondosh aka-ukalarning ayovsiz kurashi, atrofdagi insonlarning xiyonati, vatanni birlashtirish uchun orzu va amalga oshira olmaganidan so'ng turgan azoblari va nihoyat umrining so'ngigacha tug'ilib o'sgan yurtining sog'inchi uning she'riyatida aks etgan, g'azallari, ruboiylarida keng yoritilgan.

Darhaqiqat, bobomiz Bobur Mirzo qoldirgan buyuk meros, u bosib o'tgan yo'l bugungi yosh avlod qalbidan ona Vatanga muhabbat tuyg'usini oshirish asnosida shoh va shoir bobomizning ruhiga tasкин bersa, ne ajab.

Nafisa QO'YLOVA,

tuman axborot-kutubxona markazining mutaxassisi.

PAXTAKOR TUMANIDA 2023 YIL YANVAR-DEKABR OYLARIDA KO'RSATILGAN BOZOR XIZMATLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistikasi tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4796-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan tumanida 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egalladi. 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 45,8 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (12,8 foiz), transport xizmatlari (10,9 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 foiz) ham qayd etildi.

IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ISHLAB CHIQARILGAN XIZMATLARNING TARKIBI (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Eng yuqori ulush	Eng past ulush
Savdo xizmatlari	Yashash va ovqatlanish xizmatlari
45,8 %	3,4 %
43,2 %	3,3 %
Moliyaviy xizmatlar	Ijara xizmatlari
12,8 %	1,5 %
12,2 %	1,4 %
Transport xizmatlari	Ko'chmas mulk bilan bo'liq xizmatlar
10,9 %	2,2 %
10,7 %	2,1 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Ta'lim sohasidagi xizmatlar
6,6 %	1,9 %
6,5 %	1,8 %
Shaxsiy xizmatlar	Sog'liqni saqlash xizmatlari
4,1 %	0,5 %
4,0 %	0,4 %
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	Boshqa xizmatlar
3,6 %	6,5 %
3,5 %	2,4 %

Yanvar-dekabr 2022- yil.

Yanvar-dekabr 2023- yil.

Tuman statistika bo'limi.

Barhayot siymo yodi

Ma'lumki, yurtimizda har yili 14 fevralda Temuriylar sulolasi vakili, o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi - Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud ayyomi munosib ravishda nishonlanadi.

Joriy yilda ham tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 11- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida "Ajodlar ruhi - mang'u barhayot" shiori ostida kichik adabiy kecha uyushtirildi.

O'zbekiston Respublikasining muhtasham qo'shig'i - Davlatimiz madhiyasi bilan boshlangan ushbu kechada maktab o'quvchilari juda faol qatnashdilar. Maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari Guljahon Sattorova, Muxlisa Pardaboyeva, Muhammadqodir Yaxshiboyevlar boshchiligidagi tashkil etilgan tadbirda 7- va 8- sinf o'quvchilari tomonidan shoir qalamiga mansub ruboiy va g'azallar o'qildi. Oltinchi sinf o'quvchilari ijrosida shoirning hayotiga bag'ishlangan sahna ko'rinishi esa qalblarda faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otib, olam-olam shukuh bag'ishladi.

YOSH AVLOD TAFAKKURI VA MA'NAVİYATINI RIVOJLANTIRISHDA ENG MUHIM OMIL



Darhaqiqat, turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri, o'zining ijodiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o'chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotshunos, tarixshunos, olim va shoir sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallagan. Shoirning hayoti va ijodi, o'lmas asarlari ilm-fan rivoji, yosh avlod tafakkuri va ma'naviyatini rivojlantirishda to'lanuvchi muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Lobar HAMDAMOVA,

11- sonli umumta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

Yosh ijodkor

Aziz hamyurtlar! Qadrli she'riyat oshuqtalar! Gazetamizning bu galgi sonida nazm bog'inining yana bir yangi niholi bilan sizlarni tanishtirish baxtiga muvassar bo'lganmizdan bag'oyat shodmiz. Marhamat, o'qing va yangi ovoz sohibasining ilk ijod namunalaridan bahra oling.

YURTIM

Mening yagona yurtim,
Jasur, mardona yurtim.
Dunyodagi bebaho,
Qutlug', koshona yurtim.

Aziz ota makonim,
Tuzrog'onga rohat.
Suydim, onamdek seni,
Yasha mangu, toabad.

DO'STLARIM

Osmonlarga bo'ylasam,
Shafaqlari chorlaydi.
Do'stlarimni eslasam,
Dilda quyosh porlaydi.

Bahorga o'xshar ular,
Tuyg'usi tiniq soyday.
Nurga yo'g'rilganday sof.
Yuzlarida oy borday.

Hayotda tortmasin dard,
Yo'lamasin, g'am, alam.
Orzular qanotida,
Parvoz qilsin xotirjam.

Dilnoza O'SAROVA,
11-sonli umumta'lim maktabi
o'quvchisi.

"PAXTAKOR HAYOTI"

21-FEVRAL 2024 YIL

E'lon

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 11 avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi 707-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiq-lik va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4273-sonli Qarorining ijrosini ta'minlash hamda ijtimoij iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, statistik axborotlarni takomillashtirish asnosida iqtisodiy tahlillar yanada chuqurlashtirilib, tumanimiz ijtimoij-iqtisodiy ko'rsatkichlari sarhisob qilindi.

Natijaga ko'ra, 2023 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlari 699,6 mlrd. so'm (107,2 foiz), iste'mol tovarlari 176,5 mlrd. so'm (103,5 foiz), shuningdek, hududiy sanoat korxonalari tomonidan 204,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2045,3 mlrd. so'm (107,0 foiz)ga, chakana tovar aylanmasi hajmi 514,8 mlrd. so'm (103,5 foiz)ga, jamii xizmatlar hajmi 355,9 mlrd. so'm (113,7 foiz)ga, jamii kapital quyilmalar 521,0 mlrd. so'm (104,4 foiz)ga, qurilish ishlari hajmi 208,0 mlrd. so'm (103,5 foiz) ga bajarilganligini ko'rsatadi.

TUMANI STATISTIKA BO'LIMI.
Tel: 72-353-13-18

MEROSXO'RLAR DIQQATIGA!

Tuman notarial idorasida marhum Shaymanov Jiyabek Yo'ldoshevich (2022 yilning mart oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

Tuman notarial idorasida marhum Kilichev Norboy (2021 yilning avgust oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

Tuman notarial idorasida marhum Narboyev Baxrom XXX (2023 yilning oktabr oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

«PAXTAKOR HAYOTI»

Tahririyat manzili:
130900. Paxtakor shahri.
Yunus Rajabiy ko'chasi, 2-uy.
Telefon: (72) 353-11-58
Nashr indeks - 3512

Bosh muharrir v.v.b.
Maxfirat TO'XTASHEVA

Mas'ul kotib:
M. NE'MATOVA

Sahifalovchi:
R. MAHMUDOV

Gazeta 2006 yil 25 dekabrda
Jizzax viloyat matbuot va axborot
boshqarmasida 06-010-sonli
raqam bilan ro'yxatga olingan.

«Rastr Plyus Print» mas'uliyati
cheklangan jamiyat
bosmaxonasida
ofset usulida bosildi.
Manzili: 130100, Jizzax sh.
Sayiljoyi ko'chasi, 4-uy.

Bosishga berildi: 21.02.2024 yil
soat 11-00.
Bosildi: 21.02.2024 yil.
Buyurtma:
Adadi 1100 nusxa.
Oq'oz bichimi - A 3

SO'Z KO'RKI
MAQOLYUZGA KIRSANG HAM
HUNAR O'RGAN